



JADIDCHILIK RAHNAME SI ABDURAU F FITRATNING ONA TILI ILMIGA QO'SHGAN HISSASI

Ro'zimurodova Sitora Maqsiddin qizi

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi
magistranti sitoraruzimurodova050@gmail.com +998945311140*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada jadidchilik harakatining yirik namoyandalariidan biri Abdurauf Fitratning o'zbek ona tili rivojiga qo'shgan bebaho hissasi tahlil qilinadi. Unda Fitratning ona tili ta'limi, tilni o'rganish va o'rgatish metodikasi, grammatik tushunchalarni xalqchil uslubda yoritishdagi xizmatlari yoritilgan. Shu bilan birga, uning "Ona tilimiz" tushunchasiga bergan izohi, milliy o'zlikni anglash va asrab-avaylash g'oyalari o'rganilgan. Fitratning o'zbek adabiy tilini isloh qilish va uni ilmiy-nazariy jihatdan asoslashga qo'shgan hissasi, tilshunoslik bo'yicha yozgan asarlari hamda o'quv qo'llanmalaridagi ilg'or g'oyalari tahlil etilgan. Maqolada Fitrat asarlaridagi ona tili ta'limiga oid qarashlarning hozirgi zamon til o'qitish metodikasi uchun ahamiyati ham ko'rsatib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Abdurauf Fitrat, jadidchilik, ona tili, tilshunoslik, metodika, milliy uyg'onish.*

KIRISH

XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida yuzaga kelgan jadidchilik harakati xalqni jaholat, e'tiqodiy eskilik va madaniy tanazzuldan qutqarish, milliy uyg'onish va taraqqiyot sari yetaklashni o'z oldiga asosiy maqsad qilib qo'ygan edi. Ushbu ma'rifatparvarlik harakatining yirik vakillari o'zbek xalqining ma'naviy, ma'rifiy va madaniy hayotida chuqur iz qoldirdilar. Ular orasida Abdurauf Fitrat alohida o'rin tutadi. Fitrat o'z davrining yirik ma'rifatchisi, adibi, olimi va tilshunosi sifatida nafaqat adabiy-ijodiy faoliyati, balki til islohoti va ona tili ilmiga qo'shgan bebaho hissasi bilan ham ajralib turadi. Abdurauf Fitratning ona tili to'g'risidagi qarashlari uning ma'rifiy faoliyatida markaziy o'rin tutadi. U tilni millatning asosiy boyligi, milliy o'zlik va tafakkur tarbiyachisi sifatida baholab, xalqni ona tiliga hurmat va e'tibor bilan qarashga da'vat etgan. Fitrat o'zbek adabiy tilini isloh qilish, uni yangilash va rivojlantirish yo'lida ter to'kdi, ko'plab ilmiy va publitsistik asarlar yaratdi. Uning "Ona tilimiz" haqidagi qarashlari, maktab va madrasalarda yangi o'quv uslublarini joriy etish borasidagi faoliyati o'zbek tilshunosligi tarixida muhim bosqich bo'lib qolmoqda. Shu bois, Fitratning ona tili ilmiga qo'shgan hissasini o'rganish, uning ilmiy va nazariy qarashlarini tahlil qilish bugungi kun tilshunosligi va o'qitish metodikasi uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Bugungi kunga qadar millatparvar ziyolilarimiz, jadidchilik harakati namoyandalaring til, imlo, umuman olganda, ona tili taraqqiyoti yo'lidagi harakatlarini bir qancha filolog olimlarimiz o'rganib



kelishmoqda. Bulardan: Baxtiyor Nazarov, Erik Karimov, Naim Karimov, Ozod Sharafiddinov, Begali Qosimov, Ahmad Aliyev, Sherhali Turdiyev, Hamidulla Boltaboyev, Ilhom G'aniyev, O'rinboyev B., O'rinboyeva D., NurmonovA., Qurbonova M. va Hamroyeva Sh., Zaynabidin Abdirashidov, Nurboy Jabborov (muharrir), Hamidulla Boltaboyev, Bahodir Karimov, Begali Qosimov kabi olimlarimiz Fitrat ijodining turli qirralarini o'rganib ilm ahliga namoyon qilganlar.

Jadidlarning til, imlo, yozuv bilan bog'liq qarashlari ulaning amaliy harakatlarida ham namoyon bo'lgan. Bu haqida tilshunos olim Jo'liboy Eltazarov "O'zbekistonda yozuv va imlo islohotlari" o'quv-uslubiy majmuasida quyidagicha mulohaza bildiradi: "Bundan tashqari, muammoning sof lingvistik sabablari ham bor edi va bu masalalar dastlab Abdurauf Fitrat Toshkentda yashagan davrida rahbarlik qilgan "Chig'atoy gurungi" tashkilotining majlislarida (1918-1920) ko'rib chiqilgan edi. "Chig'atoy gurungi" a'zolari mavjud alvafitda o'zbek tilidagi kamida 9 ta unli tovushning bor-yo'g'i 3 ta harf ifodalayotgani qoniqarsiz holat ekanligini hamda bu hol aholiga xat-savod o'rgatish ishiga jiddiy to'siq bo'layotganini qayd etgan edilar. "Gurungchilar" mazkur holatni tuzatish uchun alfavitga 6 ta yangi harf kirgizish lozimligini yoqlab chiqqan edilar. Bu 20-asrda mavjud yozuvni isloh qilishga qaratilgan dastlabki taklif edi",- deydi ustoz olim [1;57 b].

Fitrat o'zbek tilining qoidolari, atamaları uchun milliy, o'ziga xos asoslarni yaratishga intilgan. Uning 1924 va 1925-yillarda yozgan "O'zbek tili qoidolari to'g'risida bir tajriba: Sarf" va "Nahv" darsliklari o'zbek tilshunosligida morfologiya va sintaksis sohasida asosiy ilmiy yutuq bo'lib, sintaktik nazariyasi zamondoshlarnikidan ancha ilgari ketgan. Xuddi shuningdek, yana bir tilshunos olimamiz Umirzoqova Farangiz Yaxshimurod qizining " Abdurauf Fitrat ilmiy merosi va uning bugungi kundagi ahamiyati" maqolasini olaylik, ushbu maqolada Fitratning ma'rifatparlik yo'lidagi harakati, alifbo, imlo masalasi, "Chig'atoy gurungi", "Sarf" asari haqida batafsil yoritib beradi. Shu o'rinda olima Fitratning tilshunoslikdagi yutug'ini quyidagicha e'tirof etadi: "Buyuk o'zbek tilshunosi Fitrat 1923-1930-yillarda maktablarda o'qitilgan –Sarf|| nomli o'zbek tilining birinchi grammatikasida shunday yozgan edi: "O'zbek tili ham umumiy turk tilining bir tarmog'idir. Umumiy turk tilida bo'lgan 9 ta unli o'zbek tilida ham mavjuddur||. Fitrat bu 9 ta unli tovushni shunday ko'rsatgan edi: Aa, Ää, Ee, Ii, Iı, Oo, Öö Uu, Üü (9 ta harf). Ya'ni yo'g'on o (o') yonida ingichka öl, yo'gon –ul yonida ingichka –ül, yo'gon –ıl yonida ingichka –il tovushlari uchun harflar kerak, deb ta'kidlaydi [2; 389 b].

Fitratning asarlari tarixiy va lingvistik nuqtai nazardan tahlil qilsak, ayniqsa, uning yozuv islohoti va adabiy til masalasidagi qarashlari muhim ahamiyat kasb etadi. Yana bir olimamiz Dilobar Berdiyevaning "Fitratning tilshunoslik qarashlari: kelishiklar haqida" nomli ilmiy maqolasi bo'lib, unda jadidchilik davrining atoqli vakili Abdurauf Fitratning o'zbek tilshunosligidagi qarashlari, xususan, kelishiklar tizimi haqidagi fikrlari yoritilgan. Maqola Fitratning tilshunoslikka oid qarashlarini konkret dalillar bilan ochib beradi. Ustozning qo'shimchalarga bergan izohlari mantiqiy tahlil



qilingan va bugungi o'zbek tilidagi holatlar bilan solishtirilgan. Fitratning o'zbek adabiy tilining rivoji uchun qilgan sa'y-harakatlari aniq faktlar bilan ko'rsatib berilgan (masalan, Chig'atoy Gurungi tashkiloti haqida). Olima ushbu maqolasida Fitrat kelishiklarni quyidagi turlarga ajratganini haqida izoh beradi:

So'rov belgisi (-mi qo'shimchasi)

Qarash belgisi (-ning)

Ikkinchi qarash belgisi (-niki/-niqi)

Tushma belgisi (-ni)

Borish belgisi (-ga, -qa, -ka)

Chiqish belgisi (-dan)

O'rin belgisi (-da)

Fitrat bosh kelishikni alohida ko'rsatmaydi, bu jihat bilan u Mirzo Mehdixonning "Sangloh" asaridagi qarashlarga o'xshaydi [3;348, 349 b]. Maqola Fitratning tilshunoslikdagi qarashlarini yoritishda ahamiyatli manba bo'la oladi. Fitratning kelishiklar tizimini tasniflashdagi yondashuvi o'z davri uchun yangi va qimmatli bo'lgan.

Muhokama va natijalar. Abdurauf Fitratning til sohasidagi qarashlari XX asr boshlarida o'zbek adabiy tilini shakllantirish va rivojlantirish jarayonida alohida o'rin egallaydi. Uning "Sarf", "Nahv" va "Tilimiz" kabi asarlari o'z davrida o'zbek tilining grammatik tizimini mukammallashtirishga qaratilgan fundamental tadqiqotlar bo'lib xizmat qilgan. Fitrat o'z asarlarida adabiy til va shevalar o'rtasidagi tafovutlarni tahlil qilish bilan birga, adabiy tilni xalq tili asosida boyitishni taklif qilgan.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, u o'zbek tilining fonetika, morfologiya va sintaksis masalalarini o'rganishda yangi yondashuvlarni ilgari surgan va turkiy tillar lingvistikasi rivojiga salmoqli hissa qo'shgan. Jumladan, Dilobar Berdiyeva, M. Qurbonova va boshqa tadqiqotchilar Fitratning bu boradagi nazariy qarashlarini atroflicha o'rgangan va ularning bugungi o'zbek tilshunosligidagi ahamiyatini alohida qayd etishgan.

Fitrat o'zbek tili grammatikasini birinchilar o'rgangan olim bo'lib, Qayum Ramazon va Shokirjon Rahimiy bilan hamkorlikda "Ona tili" darsligini yaratgan. Fitratning tilshunoslik sohasidagi katta xizmatlaridan yana biri uning XX yuz yillikning 20-yillari qadimiy turkiy til, jonli xalq tili va shevalarga tayangan holda, ilmiy-madaniy muomalaga kirib kelayotgan yangi tushuncha hamda hodisalarni ifodalash uchun o'zbek tilining lug'ati jamg'armasiga yangi so'zlar va atamalarni olib kirganligidadir. Bundan tashqari Abdurauf Fitrat o'z davrining yirik manbashunos hamda matnshunos olimi sifatida noyob qo'lyozmalarni ilm ahliga ulashgan. Bu haqida tilshunos, filologiya fanlari doktori Orzigul Hamroyeva o'zining "Fitrat – matnshunos" nomli maqolasida quyidagicha fikr bildirgan: "Tahlilga tortmoqchi bo'lgan manbalarimizdan biri Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" asari bo'lib, Fitrat bu asarni birinchilardan bo'lib ilmga taqdim qildi, "O'zbek adabiyoti numanalari" majmuasida parchalar e'lon qildi,



mavjud nusxalar bilan solishtirdi. Ushbu kitobda “Hibatul-haqoyiq”dan tashqari Lutfiy, Sakkokiy kabi ijodkorlarning asarlaridan namunalar ham berilgan” [4; 254 b].

Yana shuni ta’kidlash lozimki, Abdurauf Fitratning tilshunoslikdagi faoliyati ko’plab olimlarimiz tomonidan, xususan, B.O’rinboyevning “Tilshunoslik tarixi”(1994) asarida Fitratning grammatik qarashlari, A.Nurmonovning “O’zbek tilshunosligi tarixi” (2002) asarida esa Fitratning o’zbek tilshunosligi rivojiga qo’shgan hissasi batafsil tahlil qilinadi va olim ushbu qo’llanmasida Fitrat haqida quyidagicha fikr bildiradi: “O’zbek tilining fonetika, morfologiyasi va sintaksisini alohida-alohida bo’limlar sifati bilan ravishda dastlab Fitrat o’rgandi va o’zbek tilshunosligi tarixida o’zbek tili grammarasiga asos soldi. Bu grammatika “Sarf” va “Nahv” nomlari bilan yuritilib, 1925-yildan 1930-yilgacha 6 marta nashr qilindi” [5;199 b].

Xulosa. Abdurauf Fitrat XX asr boshlarida o’zbek adabiy tilini rivojlantirish, uni xalqchil va tushunarli qilish borasida beqiyos xizmat qilgan jadid ma’rifatparvarlaridan biridir. U til sohasida chuqur nazariy qarashlar bildirgan va o’z asarlari orqali o’zbek tilshunosligida mustahkam poydevor yaratgan Fitrat o’zbek tilining grammatik tizimini chuqur tahlil qilgan holda, adabiy tilni shakllantirishda xalq shevalarining ahamiyatini alohida ta’kidlagan. U o’z asarlarida imlo, fonetika, morfologiya, sintaksis kabi tilshunoslik sohalarida nazariy asoslarni ishlab chiqqan va o’z davri uchun dolzarb bo’lgan ko’plab masalalarga yechim taklif etgan.

Xulosa qilib aytganda, Abdurauf Fitratning tilshunoslik borasidagi faoliyati nafaqat o’z davrida, balki bugungi kunda ham o’zbek adabiy tili taraqqiyotida yuksak qadriyatga ega bo’lib, uning asarlarini yanada chuqurroq o’rganish, keng targ’ib qilish va ta’lim jarayonida qo’llash dolzarb vazifa hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Eltazarov J. O’zbekistonda yozuv va imlo islohotlari. Samarqand-2022.
2. Umirzoqova Farangiz Yaxshimurod qizi. Abdurauf Fitrat ilmiy merosi va uning bugungi kundagi ahamiyati. Innovative developments and research in education. Online conference
3. Dilobar Berdiyeva. Fitratning tilshunoslik qarashlari: kelishiklar haqida. Diversity Research:Journal of Analysis and Trends- 2023.
4. Orzigul Hamroyeva. Fitrat – matnshunos. Jadidchilik konfrensiya to’plam. 2023-yil 6-7- mart.
5. A.Nurmonov. O’zbek tilshunosligi tarixi. (2002)
6. Fitrat A. Tanlangan asarlar 1-jild- Toshkent.: “Ma’naviyat”, 2000 yil.
7. Hamidullo Boltaboyev. Abduruf Fitrat.- Toshkent.: “Yoshlar nashriyot uyi” 2022-yil.